



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISH

Yo‘ldosheva Sh.B.

Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo‘lim o‘qituvchi

Tayanch so‘zlar: ta'lim, tarbiya, o‘quvchi, metod, nutq, nutq o‘stirish, tafakkur, ijodiy tafakkur, ona tili, o‘qish, badiiy asar.

Ключевые слова: образование, воспитание, ученик, метод, речь, развитие речи, мышление, творческое мышление, родной язык, чтение, художественное произведение.

Key words: education, upbringing, student, method, speech, speech development, thinking, creative thinking, mother tongue, reading, artwork.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[1] ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyatini oshirishda yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi. Nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq mashqlar orqali o‘quvchilarda tafakkur, dunyoqarash, mantiqiy fikrlash, erkin mushohada yuritish ko‘nikmalari shakllanib boradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan hisoblangan notiqlik san’ati va madaniyatini o‘quvchi-yoshlarda shakllantirish ularda til, tafakkur, so‘z, nutq kabi masalalarni rivojlantirish bilan birga ezgulik, muomala, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, donolik, bilimdonlik, xulq-atvor, axloq kabi tushunchalarni kamol toptiradi. Nutq madaniyati bevosita til ta’limi va axloq-odob tamoyillari bilan uzviy bo‘lib, shaxsning manaviyati, qiyofasi, turmush tarzi, ruhiyatini namoyon etadi.



Demak, nutq madaniyati inson fikrini til vositasida to'g'ri, erkin, aniq, izchil, yoqimli va ta'sirli bayon qilish bilan birga uning bilimdonligi, yuksak ma'naviyatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Nutq va til bir-biriga qanchalik yaqin bo'lmasin, ularning funksiyalari alohida ajralib turadi. Nutq so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni bo'lsa, til fikrni bayon qilishning asosiy qurolidir. Demak, til nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda, o'quvchi-yoshlarning ongi va ijodiy tafakkurini o'stirishda, ularni barkamol inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati kishilarning fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritishga yordam beradi. Darhaqiqat, har qanday aloqalar, fikrlar, kishilararo munosabat va muloqotlar og'zaki yoki yozma nutq orqali ifodalanadi.

Nutq madaniyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda, inson, jamiyat va atrof-muhit uyg'unlashuvida o'zaro munosabat vazifasini o'taydi. Nutqning muhim ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jiplashtiradi. Nutq axloqiy madaniyat ko'zgusi sifatida ko'zga yaqqol tashlanadi. Nutqning sof, aniq va tushunarli, sodda va ta'sirli bo'lishi har bir kishining madaniyatli ekanligidan dalolat beradi.

Albatta, mazkur ishlarni amalga oshirishda uzluksiz ta'limning har bir bosqichi, ayniqsa boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyosdir. Chunki, o'quvchilarga nutq madaniyatining asosiy tushunchalari haqida ma'lumot berish, ularni ifodali o'qishga o'rgatish, aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan baxramand qilish, ijodiy tafakkurini shakllantirish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bevosita boshlang'ich ta'lim mazmunidan chuqur o'rin olgan. Boshlang'ich ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchining dunyoqarashi, nutqi shunchalik rivojlanadi, kamol topadi. ularda muloqot ko'nikmalari, nutqdan foydalanish tajribasi, bilimlari takomillashadi.

Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish va kichik yoshdagi o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish barkamol avlodni voyaga yetkazishning bosh ob'ekti hisoblanadi.

Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo'ladi yoki, qandaydir fikrning so'z orqali ifodasi qanchalik ko'p takomillashgan, sayqallangan bo'lsa, ayni shu fikrning o'zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo'ladi.

Nutq muomala madaniyati har bir kishining jamiyatdagi o'rnini, vazifasini namoyon etuvchi hodisa sanaladi, ammo, shuni aytish kerakki, har bir inson nutqida uning ijtimoiy – madaniy sharoitlari, aqliy va ma'naviy salohiyati ifoda etiladi.



Shunday ekan o'quvchilarda nutq madaniyati va ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga o'zbek tilining tuzilishi, tarkibi bilan nutqning uzviyligini tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

Nutq faoliyati inson tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga yetkazish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida – tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq fikrlarni ifoda etishning asosiy omili bo'lib, inson tafakkurining asosiy mexanizmini, fikrlash operatsiyasini amalga oshiradi. O'quvchining nutqini o'stirish orqali uning bog'lanishli nutqini shakllantirishimiz mumkin. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq deyiladi. Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin. Ijodiy tafakkur ham nutq orqali rivojlanib boradi. Bu esa o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadigan jarayondir. O'quvchilar bilan ko'proq badiiy asarlar ustida ishlash, insho va bayon yozish bolaning nutq boyligini, bog'lanishli nutqini hamda ijodiy tafakkurini o'stirishga katta yordam beradi. Badiiy adabiyot doimo taraqqiyotda bo'lganidek, ijodiy tafakkurni shakllantirish ham doimo o'quvchilarning ijodkorligini, mustaqil fikrini rivojlantiradi. Badiiy asar asosida o'quvchilar ijodiy tafakkurini shakllantirishda o'qituvchining asosiy ish metodikasi bu kasbiy tayyorgarligi, ta'limiy va tarbiyachilik malakalari, ma'naviy boyligi talab darajasida bo'lishi zarur. Boshlang'ich ta'limda badiiy adabiyotdan o'quv-tarbiyaviy ishlarda to'g'ri foydalanishning samaradorligi o'qituvchining bilim saviyasiga, uning ixtisoslik bilim darajasiga va har bir asarni pedagogik tahlil qila olish mahorati adabiyotning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatidan to'g'ri foydalanishning shartidir.

Boshlang'ich ta'lim muammolarini yechish, uni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Shuning uchun ham olimlarning ilmiy ishlarida boshlang'ich ta'limning mazmuni, o'quvchi ijodiy tafakkurini o'stirish, kichik yoshdagi o'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish, axloqiy tarbiyalash, ongli intizom, do'stlik, o'rtoqlik kabi fazilatlarni shakllantirish nazariy jihatdan yoritilgan. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalaridan biri o'quvchilar ijodiy tafakkurini oshirishdir.

Tafakkur – falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqea – hodisalarning barchasi ijtimoiy ongni aks etadi. Tafakkur – insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida



ijodkorlik jarayoni bilan bog‘liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oliy va aqliy ne‘matdir.[2]

Ijodiy tafakkur – bu ichki aqliy bir – biriga bog‘liq bo‘lgan omillar asosida yangi tafakkurga ega bo‘lishning mantiqiy ketma – ketligi mahsulidir. Ijodiy tafakkur – ma‘naviy va intellektual kamolotga erishishda muhim asoslardan biri bo‘lib, uning yordamida shaxs faolligi, aql quvvatini ishga sola bilish, borliqqa o‘zgartirish ijodiy jarayonni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ijodiy tafakkur yangi ijodiy faoliyatning faol, fidoyi ishtirokchisi bo‘lishni ta‘minlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash, uning tizimi va xususiyatlarini ishlab chiqish.

2. Dars jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini shakllantirish mazmuni va metodikasini yaratish.

3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini shakllantirishni ta‘minlaydigan shakl va metodlar, vositalar ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirish.

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash.

Bola kattalar bilan muloqot jarayonida tilni o‘zlashtiradi. Tilni o‘zlashtirish orqali sekin – asta nutqi o‘sib boradi. Nutq orqali bog‘lanishli nutqi ham takomillashadi. O‘quvchining so‘z boyligi ortishi nutq bilan uzviy bog‘liqdir. Nutq esda saqlab qolish, qabul qilish, tasavvur qilish, o‘z xisssiyotlarini tushunish, odobini boshqarish kabi holatlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
 2) o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish;
 3) o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar;

4) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;

5) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki qayta hikoyalash;

6) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi; Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi. Bog‘lanishli nutqdan mashqlarning turli



xil bo'lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda eng, avvalo, o'quvchida matn tuzish ko'nikmasini shakllantirishimiz kerak. Birinchi sinfda ya'ni savod chiqarish davridanoq dastlab og'zaki so'ngra yozma tarzda matn tuzishni o'rgatish lozim. Bolalarga matn tuzishni o'rgatish ulardagi quyidagi sifatlarni takomillashtirishga yordam beradi:

- atrof muhit haqidagi tushunchalarning qay darajada shakllanganligini;
- fikir yuritish qobiliyatlarini,
- axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini;
- voqeqlikka nisbatan mushohada yuritishni;
- munosabat bildirishni;
- voqea hodisa haqida xulosa chiqarishga.

Bunda bizga turli metodlar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo'l keladi. O'qituvchi tomonidan o'qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o'quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko'maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og'zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-,3-,4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko'rinishga o'tib boradi. Ya'ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo'lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortib borishiga qarab matndagi so'zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlariga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o'sishiga, adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, so'z boyligining ko'payashiga, tuzgan matnlariga va o'qish darslarida matnni tushinish hamda anglash ko'nikmalarini rivojlanishiga ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi. Suratga mos gaplarni bir-biriga ulab, moslab yozishda ota-onalarimiz ko'makdosh bo'lishi lozim. O'quvchi matn tuzish jarayonida uni ongli tarzda tuzadi. Har bir so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish unga keyinchalik dars va darsdan tashqari holatlarda duch keladigan matnlarni tub ma'nosini tushunish hamda anglashga katta yordam beradi.

O'quvchining nutqini o'stirish orqali matnni tushunishiga va ijodiy tafakkurini o'stirib borishimiz muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish barcha predmetlarga taalluqli bo'libgina qolmay, asosiy mas'uliyat ona tili va o'qish savodxonligi fani zimmasiga tushadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchisini ijodiy tafakkurini o'stirishning muhim



vositalaridan biri bu matn ustida ishlash hisoblanib, matnni tushunish bo'yicha tadqiqot va adabiyotlar yetarli emas. Ijodiy tafakkurni o'stirishda, avvalo, o'quvchiga tez, ongli, ifodali o'qish o'rgatilib, o'qilayotgan matnning mazmuni mustaqil tarzda tahlil etiladi. O'quvchining ijodiy tafakkurini o'stirish uchun ijodiy fikrlashini to'g'ri yo'lga solishimiz kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy tafakkurini o'stirish o'qituvchidan izchil va muntazam ish olib borishni, yuksak pedagogik mahoratni talab etadigan jarayondir. Buning uchun hozirgi kun pedagoglaridan tinimsiz izlanish va mashaqqatli mehnat talab etiladi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'sib kelayotgan yosh avlodni mard, fidoiy, insonparvar, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishiga yuksak g'oyalar, yangi kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilishlari, istedod va imkoniyatlarini ishga solishlari maqsadga muvofiqdir. Yoshlarning barkamol avlod sifatida shakllanib borishi faqat ularning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga emas, balki uning jamoada o'zini erkin tutishidan tortib, ma'naviy yetuk, yuqori saviyali mutaxassis bo'lib yetishishigacha o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
2. J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya", 2002, 500 b.
3. Иномова М.О. Педагогические основы использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье. Автореф. дис. ... докт. пед. наук. –Т.: ЎзПФИТИ, 1998. –41 с.
4. K. Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): - T.: «NOSHIR», - 2009. 480 b.
5. Farsakhanova, D., & G'ofurova, S. (2021). Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarida P. Mo'min ijodini o'rganish metodikasi. Журнал инновации в начальном образовании.
6. Farsakhanova, D., & Azdamova, M. (2021). Boshlang'ich sinflarda sifat ustida ishlash bo'yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Журнал инновации в начальном образовании.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish mashg'ulotlari orqali ularda ijodiy tafakkurni shakllantirish xususida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена формированию творческого мышления у учащихся посредством развития речи на родном языке и на занятиях по чтению в начальных классах.

SUMMARY

This article discusses how to develop students' creative thinking in their native language and reading literacy classes in primary education through speech development activities.